

KLASSITSIZM ADABIYOTI :TARIXIY TARAQQIYOTI ,ASOSIY TAMOYILLARI VA NAMOYANDALARI

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy – gumanitar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi

Mirzamahmudova Rahnamo Anvarjon qizi

Email: islombektoyirjonov@gmail.com

Tel: +998 94 579 1101

Annotatsiya: Ushbu maqolada klassitsizm adabiyoti keng qamrovda o'rganiladi. Klassitsizmning paydo bo'lish sabablari, uning ijtimoiy, falsafiy va estetik asoslari tahlil qilinadi. Asosiy tamoyillar, janr qonuniyatlari muhim adiblar va ularning asarlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada klassitsizmning boshqa adabiy adabiy oqimlar bilan bo'liqligi ham yoritiladi. Ushbu maqola klassitsizmni chuqur tushunishga va adabiyot tarixida uning o'rnini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: klassitsizm, adabiy oqim, yunon – rim madaniyati, aql, axloq, uch birlik, janr qonunlari Korneyl, Rasin, Molyer, Boalo

Kirish

Klassitsizm XVII-XVIII asrlarda Yevropa, ayniqsa Fransiyada shakllangan adabiy va san'at oqimidir. Bu davr absolut monarxiya kuchaygan ijtimoiy hayotda qat'iy tartib va nazorat o'rnatilgan edi. Ayniqsa, Fransiyada Lyudovik XIV davrida davlat tuzilmasidagi tartib intizom va markazlashuv san'atga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Klassitsizm qadimgi yunon va rim adabiyoti namunaviy deb qaraladi. Antik davr asarlarning soddaligi axloqiy yo'nalganligi vaz qattiy qat'iy qoidalar asosida yaratilgan klassik adiblar uchun ideal namunaga aylandi.

Estetik va adabiy tamoyillar

Klassitsizm o'z tamoyillarini asosan aql-idrokka tayangan holda shakllantiradi. Bu oqim vakillari insonni ongli mantiqiy mavjudot sifatida tasvirlashga harakat qilishgan. Hissiyotlardan ko'ra aql ustun qo'yilgan. Asarlarda axloqiy tarbiya berish, ijtimoiy mas'uliyat va davlatga sadoqat g'oyalari ilgari surilgan.

Asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratt:

1) Uch birlik qonuni: harakat bir joyda, bir voqea atrofida va bir vaqt ichida sodir bo'lishi lozim.

2) Janrlar ajratilishi: fojia va komediya qat'iy ajratiladi, ularning aralashtirishi tasqiqlanadi.

3) Qahramonlar tabaqalanishi: fojialarda asosan zodagonlar, komediyalarda esa oddiy odamlar ishtirok etadi.

4) Aql ustuvorligi har qanday voqea, harakat aql-idrok bilan tushuntiriladi.

5) Didaktik(tarbiyaviy) maqsad: asarlar adatda saboq berishga qaratilgan bo'ladi.

Klassitsizm namoyandalari va ularning ijodi

Pyer Korneyl (1606-1684) – fransuz klassitsizmining asoschilaridan biri . Uning “ Sid (le Cid) tragediyasi klassik fijia janrining yorqin namunasi bo'lib qahramonlik,vatanparvarlik va shaxsiy burch muammolarni o'rta qo'yadi.

Jan Rasin (1639 -1699) – Kornleyning izdoshi , fojia janrini yanada mukammallashtirdi. U “FEDRA”,

“Andromaxa”, “Berenika “ kabi asarlarda inson tuyg'ulari bilan aqil o'rtasidagi ziddiyatni chuqur taxlil qilgan.

Molyer (1622-16673) – buyuk kamediya ustasi. Uning “xasis”, “tabib bo'lishni istagan bemor”, “zohid” kabi asarlari fransuz ijtimoiy hayotidagi noxaqliklarni, ikkiyuzlamachilikni ochib bergan. Molyer komediya orqali ijtimoiy tanqid olib borgan bo'lsa-da klassitsizm tamoyillariga sodiq qolgan.

Nikolya Baolo (1636-1711) – klassik adabiyot nazariyatchisi. Uning “She'riyat san'ati (LArt poetique) asari klassitsizm qoidalarini nazariy asoslab berdi

Klassitsizmning bishqa oqimlar bilan munosobati

Klassitsizm barokko sa'natiga javoban paydo bo'lgan bo'lib, tartibsizlik,ortiqcha hissiyotlar va bezaklardan voz kechgan. Keyinchalik esa klassitsizmga qarshi romantizm oqimi yuzaga keldi. Romantizm da inson tuyg'ulari individuallik,orzular va erkinlik asosiy mavzuga aylandi.

XULOSA

Klassitsizm adabiyoti o'zining qat'iy tamoyillari, mantiqiylik va axloqiylikka intilish bilan adabiyot tarixida muxim o'rin egallaydi. Uning asoschilari yaratgan asarlar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Klassitsizm nafaqat oz davrining ijtimoiy muammolarini yoritgan, balki adabiyotda tartib, uyg'unlik va go'zallik me'yorlarini belgilagan oqim sifatida tarixda qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.

5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11,2,18-20,2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28,1,230-233,2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
13. Abdullaeva, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. *Science and innovation*, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.